



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 22-may

VII-10-69-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida

“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarori, 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qarori, Budget Kodeksining 126-moddasi hamda tuman mahalliy budgetining qo’shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilish qaroriga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g’risida”gi xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining VII chaqiriq o‘ninch sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning mahalliy budgetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari, 1-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi va xususiy lashtirishdan tushgan mablag‘laridan foydalanish to‘g’risidagi takliflari hamda 2025-yil 6-maydag‘i tuman mahalliy budgetining qo’shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilishining 5-sonli bayoni qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budgetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 896,3 mln.so‘m, 2025 yil 1-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan 93,327 mln.so‘m va xususiy lashtirishdan tushgan mablag‘lar hisobidan 400,0 mln.so‘m **jami 1 389,627 mln.** (Bir mlrd. uch yuz sakson to‘qqiz mln.olti yuz yigirma yetti ming) so‘m mablag‘lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budgetining qo’shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan tuman tashkilotlari (Rahbarlari)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga ajratilgan mablag‘larni ishlatalishini nazorat qilish yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budgetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish shuningdek, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budget mablag‘larining to‘g’ri va maqsadli xarajatga chiqarilishini ta’minlash bo‘yicha shaxsiy javobgarlik mas’uliyati yuklatilsin.

5. Mazkur Qaror ijrosi xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirdorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev) va tuman hokiminining birinchi o'rinnbosari N.Jo'lmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
 Kengashining
 2025-yil 22-maydagi
 VII-10-69-7-96-K/25 -son qaroriga
 1-ilova

**Tuman mahalliy budgetining qo‘sishimcha manbalari hisobidan amalga
 oshiriladigan tadbirlar uchun yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdori**

Nº	Mablag‘ ajratish manbaasi	Mablag‘ ajratiladigan tashkilotlar va hududlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘m)
1			4R-46 “Samarqand-Juma-Kattaqo‘rg‘on” avtomobil yo‘li yoqasidagi manzarali va mevali daraxt ko‘chatlarini polietilin truba bilan sug‘orish uchun 4 dona quduq qazib o‘rnatish uchun	174 600,00
2			“Kattaming” MFY hududida joylashgan “Ona haykali” xotira maydonini qayta ta’mirdan chiqarish uchun	213 700,00
3	2025 yil 1 yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	Tumandagi umumiy o‘ratata’lim maktablari hududidagi yo‘llarning serqatnov qismlariga sun’iy notejisliklar o‘rnatish hamda avtomobillar xarakat tezligini cheklash maqsadida asfalt sotib olish uchun	58 000,00
4			Tumandagi Chig‘atoy MFY hududidagi ta’mirtalab yo‘llarni asfaltlash maqsadida asfalt sotib olish uchun	150 000,00
5		Tuman hokimligiga	Uyshun mahallasi Zarafshon qishlog‘i hududidan o‘tuvchi M-37 avtomobil yo‘lining serqatnov qismida aholining xarakat xavfsizligini ta’minalash maqsadida 1 dona svetafor qurilmasi o‘rnatish uchun	50 000,00

№	Mablag‘ ajratish manbaasi	Mablag‘ ajratiladigan tashkilotlar va hududlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘m)
6			Polvontepa mahallasi Muxtor qishlog‘i hududidan o‘tuvchi M-37 avtomobil yo‘lining serqatnov qismida aholining xarakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 1 dona svetafor qurilmasi o‘rnatish uchun	50 000,00
7		Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limiga	Tumandagi Zooveterinariya shaxobchalariga 10 dona du‘yar idishi olish uchun	100 000,00
8		Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga	PQ-1 ga asosan tumandagi umumta’lim maktablarining kirish-chiqish yo‘laklariga PTZ-kameralari o‘rnatish uchun	100 000,00
Jami erkin qoldiq hisobidan				896 300,00
9	2025 yil I-chorak xususiy lashtirishdan tushgan mablag‘lar	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga	Tumandagi 30-umumta’lim maktabining bo‘s sh turgan binosini 100 o‘rinli DMTTga moslashtirish maqsadida qurilish materiallari sotib olish uchun	400 000,00
10	2025 yil I-chorak DROBQ	Tuman hokimligiga	Jamoatchilik fikri asosida shakllanadigan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazish uchun	93 327,00
	Jami ajratiladigan mablag‘			1 389 627,00